

SOTSIAL CHEGARALANGAN SO'ZLAR, VULGARIZMLARNING NUTQDA  
QO'LLANISHIGA OID MULOHAZALAR

Axmedova Mashxura Ulug'bek qizi  
Farg'ona davlat universiteti talabasi

**Annotatsiya:** mazkur maqolada milliy til, uning tarkibiy qismlari, lug'at tarkibi, leksikologiyaga oid ma'lumotlar keltirilgan. Bundan tashqari, Said Ahmadning "Ufq" trilogiyasida qo'llangan vulgar so'zlar yordamida ularni nutqda qanday holatlarda uchrashi mumkinligi ko'rsatib berilgan

**Kalit so'zlar:** nutq, sotsial chegaralangan so'zlar, vulgarizm, varvarizm, argo, jargon.

O'zbek xalqi Markaziy Osiyoning qadimgi xalqlaridan biri bo'lib, uning tili XI-XII asrlarda ma'lum ijtimoiy-tarixiy sharoitlarga ko'ra xalq tili sifatida shakllana boshladi va asta-sekinlik bilan rivojlanib keldi. O'zining necha asrlik tarixiga ega o'zbek tilidan bugungi kunga kelib dunyoda 35 milliondan ortiq inson foydalanadi. Ulardan 25 milliondan ortig'i O'zbekistonda istiqomat qiladi. O'zbek tiliga oid kishilar Afg'oniston, Qashqar, Saudiya Arabistoni, Turkiya, AQSh, Germaniya va yerlarda ham yashashadi. Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston va Turkmaniston Respublikalarida o'zbek maktablari bor. Maqolamiz davomida ushbu tilning tarkibiy qismlari va ularning nutqida qo'llanishiga oid ma'lumotlarni o'rganamiz.

Har qanday tilni o'rganayotgan paytimizda, eng avvalo, bizni qurshab turgan narsa va hodisalarning amaliy hayotimiz bilan bog'liq bo'lgan turli xil harakati, holati, harakatlari, belgi va xususiyatlarining shu tilda qanday ifodalanishini, nomlashini bilishdan boshlaymiz. Bu kabi so'zlarning barchasi tilning lug'at tarkibini tashkil etadi.

Tilshunoslikning so'z va uning ma'nolarini o'rganadigan bo'limiga leksikologiya yoki leksika deyiladi. Leksikologiya grekcha lexicos - "so'z, so'zga doir" va logos - "ta'limot" so'zlarining birikuvidan olingan bo'lib, leksika (so'z) haqidagi ta'limot deganidir.

Leksika atamasi ikki ma'noda qo'llanadi:

- 1) Tilning lug'at tarkibi, so'zlar yig'indisi;
- 2) Lug'at tarkibini o'rganuvchi tilshunoslikning alohida bo'limi.

Tildagi barcha so'zlar yig'indisiga shu tilning lug'at tarkibi yoki so'z boyligi deyiladi. Leksikologiya tilning lug'at tarkibini o'rganadi. Tilning lug'at tarkibini lug'aviy birliklar tashkil etadi. Lug'aviy birlik deganda tilning lug'at boyligiga kiradigan barcha birliklar nazarda tutiladi. Bunga birinchi navbatda so'z kiradi. So'zga ma'no jihatdan teng keladigan barcha birliklar ham lug'aviy birlik hisoblanadi. Masalan: ibora, tasviriy ifoda, qo'shma so'z, juft so'z, takroriy so'zlar, atamalar, birikmali so'zlar (oliy ma'lumotli yigit) ma'nosi jihatidan so'zga teng. Leksik boyligimiz yordamida kun davomida muayyan tilda muloqot qiluvchi shaxslar bilan axborot almashamiz, bu jarayon davomida turli xil birikmalar hosil qilamiz va bu orqali turlicha subyektiv qarash, fikrlarimizni suhbatdoshimizga yetkazamiz.

Adabiy til - Umumxalq tilining ishlangan, sayqal berilgan, ma'lum norma (me'yor)larga solingan shakli. Bu til muayyan til foydalanuvchilarining barchasi uchun bir xil bo'ladi. Ammo yurtimizdagi barcha ijtimoiy guruhga mansub insonlar ham adabiy til me'yorlariga amal qilib

gapiraverishmaydi. Qayerda yashashidan qat'iy nazar o'zbek millatiga mansub barcha odamlar tomonidan ishlatiladigan til milliy (umumxalq) o'zbek tili deb yuritiladi. Milliy til o'z tarkibiga adabiy til, sheva, jargonlar, vulgarizm, varvarizm kabi guruh so'zlarni qamrab oladi. Adabiy til haqida yuqorida ma'lumotga ega bo'ldik. Endi milliy tilning qolgan qismlarini batafsil o'rganamiz.

Argo [fr. - jargon] - yasama til. Biror ijtimoiy guruh, toifaning (masalan, talabalar, sportchilar, o'g'rilar va b.) o'ziga xos, boshqalar tushunmaydigan lug'aviy birliklardan iborat tili.

Sheva - [f. - usul, tarz; uslub; odat; odatlanganlik] Umumxalq tilining ma'lum hududga xos tarmog'i, mahalliy til. O'zbek tilining Farg'ona shevasi.

Jargonlar - [fr. jargon - ma'lum bir guruhga oid so'z] Biron ijtimoiy yoki professional guruhga xos, faqat ularning o'zi tushunadigan va adabiy tildan farq qiladigan so'z va iboralar.

Varvarizmlar [yun. barbarous - «kelgindi» so'zidan] ona tiliga o'zlashmagan, uning me'yorlariga xos bo'lmagan, o'zga til hodisasi sifatida qo'llanadigan so'z va iboralar (ma'lum bir tilga chet tillaridan kirib kelgan, tilda to'la o'zlashmay, yotlligi bilinib turadigan so'z va iboralar. Masalan: “zemlyak”, “bratan”, “paxan”, “dedulya”).

Vulgar [lot - oddiy; odatiy] - o'taketgan dag'al, qo'pol, beodob, haqoratli so'kinishlar. Vulgarizm esa nutq jarayonida ishlatiladigan vulgar so'z yoki iboralar hisoblanadi.

Xulosa qiladigan bo'lsak, til tarkibidagi har qanday birliklar, ular qanchalik ommaga xos bo'lmasin, adabiy til me'yorlariga mos kelavermas ekan. Shuning uchun muloqot jarayonida bu kabi birliklardan kamroq foydalanishimiz zarur.

Quyida Said Ahmadning qalamiga mansub “Ufq” trilogiyasidan olingan misollar yordamida bu turga kiruvchi til birliklarining nutqimizda qanday holatlarda qo'llanishini ko'rib chiqamiz.

1. Onalar bolasini chertgan odamni “**qo'ling singur**”, deb qarq'aydi (Jannat xola).
2. Inoyat oqsoqol o'rniga uni Jinoyat **o'lgur**, Jinoyat oqsoqol deb atashardi.
3. Asar yakunidagi barramda aytilgan maydada ha ho'kizni **harom o'lgur** deydilar - bu ham vulgarlarning xalq orasida qo'llaniladigan bir ko'rinishi
4. Voydod, sho'rimiz qurib qoldi. Sharmanda bo'ldik, qizni olib qochdi. Bir **yashshamagur, qirchiningdan qiyilgur** qizni olib qochdi. (Azizxon Lutfini to'y ustboshida olib chiqib ketganda mahala xotinlarining gapi)
5. Akbarali Ummatali (Azizxonning dadasi)ga Lutfining qilgan ishidan norozi ekanligi va kechirmasligini quyidagicha aytadi:  
- Meni hech qanaqa singlim yo'q. U o'lgan. Ota-onam nomidan uni **oq qildim!** - deydi.
6. Voy, pismiqlik, voy, ichingdan pishmay **o'lgur** Dildor!... hozir borib u beburdning dodini berib qo'yay. Voy **tusingni yel yutgur**.
7. Bu **urush o'lgur** hammani qiyratyapti.
8. Voy, **oting o'chgur urush**, ne ne yostiqlarni ko'z yoshdan ho'l qilmayap- san-a!  
Ikromjon Tursunboyni qochoq ekanligini bilgan paytda:
9. ... sen juvonmargni bolaligingda akalaring qatori dard olib ketsa bo'lmasmidi! Seni opichlab ko'targan **otangning bellari qarsillab sinib ketsa** bo'lmasmidi! Qandoq qiladi, qandoq qiladi?... Keksayganida tiriklay go'rga tiqding-a! Go'rga tiqding-a! Ota mehriq noloyiq

bo'lgan o'g'lini Vatan oldidagi burchini bajarishdan qochganini eshitib turib ham yoqtiradi, o'g'lini emas o'zini so'kadi. Mana shundayligi uchun ham Tursunboy "qochoq" bo'lgan edi.

Ikromjon to'qayzor orasida Tursunboyni ko'rgan payt:

10. - **Xoin! Qochoq! Nomard! Hezalak! Iflos! It! Juvonmarg!** Ona qabrga qo'yilayotganda ko'rib turib yoniga borolmagan, **oqpadar!** – deb qarg'aydi.

Ikromjon o'g'lini xalq oldiga olib chiqib aybiga iqrorg qildirmoqchi bo'lib sudrayotganda:

11. - Dada dema, sendek bolam yo'q. seni allaqachon o'ldiga chiqarib qo'rganman.

**Ko'zlaring o'yilsin, o'qraygan ko'zlaringni quzgunlar cho'qisin!**

Ikromjon urushda nemisni:

12. - Obbo, **padarla'natlar** o'lmay qolgan ekan, - deb qarg'aydi.

Jannat xola:

13. - Yomonlar **o'lsin!** yomonlarni qora yer yutsin!

Inoyat oqsoqol vafotidan so'ng unga bergan pulini A'zamjondan so'rab kelgan xotin maqsadiga erisha olmagach:

14. - Xudoyo **go'ringda to'ng'iz qop, do'zaxda kuyib kul bo'l!** Bolalaringning azasiga buyursin, **juvonmarg,** - deb chiqib ketadi.

Risolat ukasi Nizomjonni:

15. - Voy, **ado bo'lsin, qirg'in kegur** kennoyisi jigaridan aziz bo'pti-da.

Asrora Inoyat oqsoqolni:

16. - E, **odam bo'lmay o'lsin,** jinoyat oqsoqol. Kuniga bir marta jinoyat qilmasa kechasi uyqusi kelmaydi, bu **o'lgurning.** Shu ham odam bo'ldimi-yu...

Inoyat oqsoqol somsapazlarni:

17. - Ha, **pul ko'r qilgurlar,** yog'li qo'l bilan pul ushlaydimi? Rasvo qipti-ya, shundoq aziz narsani kir qipti-ya.

Inoyat oqsoqol ipaklarni bo'yaganlarni:

18. - **Qo'ling singur, olgan puling kafaningga yarasin,**- deb qarg'aydi.

Inoyat oqsoqol o'g'li Nizomjonga:

19. - **Oq qildim seni!** Sendaqa bolam yo'q! **Oqpadarsan!** Yo'qol bu uydandan! – deydi.

20. - **Ko'r bo'lgur, basir bo'lgur.** Xudoyo Xudovando **ikki ko'zing sitilib oqsin** seni...

bularni kimga atab yig'dim, **oqpadar?! ... juvonmarg bo'l!** u dunyo, bu dunyo kosang oqarmasin!

A'zamjon Dildorga jahl ustida:

21. - **Uch taloqsan,** qo'ydim, - deydi.

Asar davomida sifat turkumiga mansub so'zlar ham qahramonlarning bir-biriga bo'gan salbiy munosabatlarini ifodalab kelgan.

Akbarali bilan Azizxonning Lutfinisaning oldiga kirganini bilib qolib urushib olgandan keyingi so'zlashuvini ko'radigan bo'lsak:

22. - E, **odam bo'lmay har narsa bo'l!** boshga bitgan balo bo'lding, **yaramas.**

Azizxon Lutfinisaga:

23. - G'unajin ko'zini suzmasa, buqacha ipini uzmaydi. Sen **ablak** ko'z suzmasang, bu yaramas bunchalik suykalmasdi. (bu yerda ablak – singlisi, yaramas – Azizxon)

Tog'a Azizxonning qo'li bog'liq, betlari kaltakdan ko'karib ketganini ko'rib:

24. - Yana nima hunar ko'rsatdi, bu **tiyilmas.** – deydi

Kelinning to'ydandan qochganini bilgan kuyov, Akbaralini;

25. - Qizni top, **nomard**.

26. - Mana bu **hezimkash** uyalsin, - kabi so'zlar bilan ayblaydi

Inoyat oqsoqol eshagi yog'oqqa bog'liq turganini ko'rib:

27. - Bu qaysi **juvonmargning** ishi, - deydi. Kinoying, deb yong'oqqa tirmasha boshadi.

Ikromjonning aytgan so'zlariga e'tibor beradigan bo'lsak, u o'g'liga onasi kasalxonada yotganini xabar qilmagani uchun shunday deydi:

28. Ayangning kasalxonaga ketganiga 5 kun bo'пти, nega menga xabar qilmading, **esi yo'q... Ahmoq, yaramas**, onang shu ahvolda yotsa-yu, sen...

Azixon Esh polvonni oldiga borib boshingdan qolsin kelganini eshitgach:

29. Urdingmi? Voy **esi yo'g'e**, - deydi. Azixon esa tuproq qazib undan o'tganini aytganda ham:

30. Voy Azamat-e! voy **esi yo'g'e!** - tarzda fikrini aytadi. Bu misollardagi turlicha holatlarga munosabatni adib 1 ta so'z bilan beradi. Esi yo'q ham ijobiy ham salbiy ma'noda keladi. Trilogiyada shu kabi vulgarlarning ijobiy ma'noda qo'llanish holatlari ham uchraydi.

Esh polvon Azixonga:

31. Esi yo'q bola ekansan... bo'ldi, bo'ldi tentak. Bolamisan deyman. - bular ijobiy ma'noda kelgan.

\*Bundan tashqari, Asrora Nizomni, Dildorni Nizom o'lgur, o'lgur Dildor deydi, maqsadi ularni qarg'ash emas, bu - og'zaki nutqqa xos bo'lgan bir ko'rinish.

Romanda qarg'ishlarni teskari ma'noda qo'llash holatlari ham mavjud.

Jannat xola Tursunboy bilan gaplashayotganda yoki u bilan bog'liq hodisalar davomida undan achchiqlansa ham, uni qarg'amaydi, o'zi qiyalib tursa ham, bolasini avaylaydi. U qancha yomon gapga loyiq bo'lsa ham, qarg'amaydi.

Ona doimo orqasidan yurib u chala qoldirgan ishlarni bajararkan, shunday deydi:

- **Bo'yinginang uzilmagur**, ha, **og'zingdan bol tushmagur**.

- Ha, **umringdan baraka topgur-a**, tursang-ku, bo'lardi-ya. Mening shu ahvolda borib-kelishim osonmi. Ha, **bolang ko'paygur-a**. qandoq qilaman boramanda.

- Ha, **bolang ko'paygur-a**, bu nima qiliq, hali ham yotibsanmi? Mana, bormaganingdan dadang nonushta kutib-kutib, och-nahor qishloqqa tushib kelibdi, shunaqa ham bo'ladini, **bolangdan aylanay**.

Azixon Lutfinisani olib qochib Farg'ona kanali qurilishida ishlayotgan paytda Ummatali uning oldiga boradi. O'g'lini ko'rib:

- Ha, **bo'yniginang uzilmagur-a**, sho'x, juda sho'x bolasi **tushmagur**, **bolasi tushmagur**, - deydi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Gulnoza, R., & Lola, K. (2022). OBRAZLAR TALQINIDA LINGVISTIK IMKONIYATLAR. Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS), 2(Special Issue 3), 91-95.

2. Mashrabjonovich, O. J. ., & Yuldashevna, S. G. . (2022). **IMPROVING THE QUALITY OF PRESCHOOL EDUCATION**. *Modern Journal of Social Sciences and Humanities*, 5, 477-481.
3. Mukhtoralievna, Z. S. ., & Salimakhon, M. . (2022). **Psycholinguistics and Neurolinguistics of Bilingualism**. *Spanish Journal of Innovation and Integrity*, 6, 387-391.
4. Mukhtoralievna, Z. S. ., & Saminjanovna, M. S. . (2022). **Formation of Future Primary School Teachers Skills to Use Project Activities**. *Spanish Journal of Innovation and Integrity*, 6, 346-353.
5. Mukhtoralievna, Z. S. ., & Tavakkalovna, A. G. . (2022). **History of Information Technologies in Education**. *Spanish Journal of Innovation and Integrity*, 6, 359-363.
6. Mukhtoralievna, Z. S., & G‘aniyevna, M. M. (2022). **Oral and Written Forms of Speech**. *International Journal of Culture and Modernity*, 13, 39-43.
7. Mukhtoralievna, Z. S., & Madaminkhonqizi, S. M. (2022). **Methods of Mnemonics in Pedagogical Work with Elementary School Students**. *International Journal of Culture and Modernity*, 13, 44-52.
8. Muxtoraliyevna, Z. S. ., & qizi, M. M. M. . (2022). **The Concept of a Poetic Text and its Features**. *Spanish Journal of Innovation and Integrity*, 6, 418-423.
9. Nabijonova, F. (2022). **Boshlangich sinflarda didaktik oyinlarning ahamiyati: Nabijonova Feruza. Qo‘qon universitetining ilmiy materiallar bazasi**, 1(000006).
10. Nabijonova, F. (2022). **BOSHLANGICH SINFLARDA OZGA GAPNING QOLLANILISHI**. *Ijodkor o‘qituvchi*, 2(19), 180-184.
11. Ne‘matovna, K. N. (2022). **Character and Character**. *International Journal of Culture and Modernity*, 17, 118-122.
12. Sobirjonovich, S. I. ., & kizi, K. G. B. . (2022). **DEVELOPMENT OF SOCIAL INTELLIGENCE IN PRESCHOOL CHILDREN**. *Modern Journal of Social Sciences and Humanities*, 5, 492-496.
13. Sobirjonovich, S. I. ., & kizi, O. S. M. . (2022). **DEVELOPMENT OF CREATIVE ABILITIES OF PRESCHOOL CHILDREN IN ART ACTIVITIES IN ACCORDANCE WITH THE REQUIREMENTS OF PRESCHOOL EDUCATION**.
14. Sobirovna, U. O. (2022). **The Use of Mnemotechniques in Teaching Younger Schoolchildren**. *Spanish Journal of Innovation and Integrity*, 6, 446-450.
15. Sohiba, Z., & Gulnoza, R. (2022). **LINGVOKULTUROLOGIYADA “SOG‘INCH” KONSEPTINING QO‘LLANILISHI VA O‘ZIGA XOSLIKLARI. O‘ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI**, 1(8), 711-717.
16. Sohiba, Z., & Gulnoza, R. (2022). **MATNLARDA OBRAZLAR SILSILASI VA ULARNING LINGVOPRAGMATIK TALQINI**. *Ijodkor o‘qituvchi*, 2(19), 204-206.
17. Soliyev Ilhomjon Sobirjonovich, & Rasuljonova Mohigul Avazbek kizi. (2022). **ESSENCE AND CONTENT OF THE PROCESS OF ADAPTATION OF CHILDREN IN PRESCHOOL EDUCATIONAL INSTITUTIONS**. *Modern Journal of Social Sciences and Humanities*, 5, 186-192.

18. Soliyev Ilhomjon Sobirjonovich. (2022). THE ROLE OF THE TEACHER'S SPEECH IN THE DEVELOPMENT OF CHILDREN'S SPEECH. Modern Journal of Social Sciences and Humanities, 5, 176-185.
19. Urinov B. J. EUROPEAN STANDARDS FOR THE QUALITY OF EDUCATION //Scientific Bulletin of Namangan State University. – 2020. – T. 2. – №. 7. – С. 427-432.
20. Usmonova, O. (2016). Ikkinchi sinf darsliklarida shartli belgilar. Ta'lim va kasbiy mahorat. Ilmiy uslubiy maqolalar to'plami, 1(06), 46-49.
21. Valijonovna, K. I. ., Rakhmatjonovich, T. D. ., Mukhtoraliyevna, Z. S. ., & kizi, S. G. G. . (2022). Informational Technology at Education. Spanish Journal of Innovation and Integrity, 6, 262-266.
22. Бакиров Т. Ю. О ЗНАЧЕНИИ КУРСОВ ПО ВЫБОРУ В ПОДГОТОВКЕ УЧИТЕЛЯ МАТЕМАТИКИ //Педагогические науки. – 2011. – №. 6. – С. 185-188.
23. Усмонова Одина РИВОЖЛАНГАН МАМЛАКАТЛАРДА ТАЪЛИМ ЖАРАЁНИ // CARJIS. 2022. №Special Issue 3. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/rivozhlanganmamlakatlarda-talim-zharayoni> (дата обращения: 20.06.2022).